

DARSLARDA MUAMMOLI VAZIYAT METODLARDAN FOYDALANISH

Bibisora Joraqulova Orif qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-maktabning boshlangʻich fani oʻqituvchisi

Gulhayo Hamroyeva Toshpoʻlat qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-maktabning boshlangʻich fani oʻqituvchisi

Akbar Roziqov Ahmedovich

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

50-maktabning tasviriy sanʼat oʻqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muammoli vaziyat metodlari haqida kengroq maʼlumot berilgan va misollar orqali kengroq yoritilgan.*

Kalit sozlar: *muammoli vaziyat, muammoli vaziyat turlari, Muammo texnologiyasi*

Mamlakatimizning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, oʻquvchi-yoshlarimizning bilim va salohiyatlarini jahon andozalari darajasiga koʻtarishni taqozo etmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, taʼlim-tarbiya jarayonini zamon talabi darajasida tashkil etish va yangi taʼlim texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etishni talab etadi.

Bilamizki, oʻquvchilar taʼlim muassasalarida fanlar boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlish bilan birgalikda, oʻz fikrini boshqalarga tushuntira olish va boshqalarni tushuna olish, munozaraga kirishish, yaʼni bilim, koʻnikma va malakalardan kundalik hayotiy vaziyatlarda foydalana olishlari zarur. Buning uchun, avvalo, oʻqituvchi oʻz fani boʻyicha chuqur bilimga ega boʻlishi, ilgʻor zamonaviy oʻqitish usullaridan muntazam xabardor boʻlib borishi hamda oʻquv mashgʻulotlari jarayonida ulardan samarali foydalanish yoʻllarini kashf eta olishi lozim. Shundagina oʻqitish sifati ham, oʻquvchilarning fanni oʻzlashtirish darajasi ham kutilgan darajada yuqori boʻladi.

Bugungi kunda rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyasining asosiy boʻlagini hisoblangan muammoli taʼlim eng samarali oʻqitish usullaridan biri hisoblanadi. Muammoli oʻqitishni chuqur oʻrganish XX asrning 60-yillarida boshlangan boʻlib, uning asosida Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi degan gʻoya yotadi va fikrlash psixologiyasi nuqtayi nazaridan muammoli oʻqitish gʻoyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan. Muammoli taʼlim deyilganda, oʻqituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo oʻquvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, koʻnikma va malakalarni ijodiy oʻzlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan taʼlim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Mashgʻulot jarayonida fan oʻqituvchisi diqqat-eʼtiborni tahlil qilinishi kutilayotgan muammoga qaratadi. Negaki, muammoli taʼlim texnologiyasining

asosini muammoli vaziyat tashkil qiladi. Taʼlim oluvchilar muammoning yechimini topishga astoydil harakat qiladilar. Bunda muammoli izlanuvchanlik faoliyatini toʻgʻri tashkil qilish, eng muhimi, oʻquvchilarda oʻquv muammosi, uning mohiyati, amaliy ahamiyati kabi masalalar haqida aniq tushunchalarni uygʻotish va izlanuvchanlik faoliyatiga nisbatan motivatsiyani yuzaga keltirish lozim. Yana muammoli oʻqitish mashgʻulotlarini tashkil etishda fan oʻqituvchisi hech qachon oʻquvchilarga muammoning yechimini aytish kerak emas, balki ularga hal eta olishlariga turtki berish, mashgʻulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur boʻlgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim boʻladi. Buning natijasida oʻquvchilar kasbiy bilimlarga, koʻnikmalarga, malakalarga ega boʻladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, yangi bilimlar maʼlumot uchun emas, balki muammo yoki muammolaming yechimi uchun beriladi. Muammoning yechimi esa, oʻz navbatida, ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Agar oʻquvchi muntazam tayyor bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirishga oʻrgatilgan boʻlsa, uning ijodiy qobiliyatini soʻndirib qoʻyish ham mumkin, negaki, fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda rivojlanadi.

Muammoli taʼlim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil koʻrinishga ega:

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qoʻyilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli taʼlim texnologiyalaridan adabiyot darslarida, ayniqsa, badiiy asarlar tahlili jarayonida foydalanish oʻquvchini asar bilan toʻliq tanishib chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, adabiyot darslarida muammoli savollar qoʻyilishi oʻqituvchiga oʻquvchilarning tinglash va muloqot qilish koʻnikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish vafikrlash layoqatini oshirish, ularning oʻz fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Dars jarayonlarida Nima deb oʻylaysiz?, Fikringiz qanaqa?, Sizingcha qanday?, Nega bunday deb oʻylaysiz?, Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz? kabi savollarning berilishi ham taʼlim oluvchilarga soʻzlash, oʻz nuqtayi nazarlarini ifoda eta olish uchun qulay vaziyatni yaratib beradi. Ona tili, adabiyot darslarida "Muammoli vaziyat" metodini qoʻllash mumkin. Ushbu metod taʼlim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish boʻyicha koʻnikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi yoki "Muammo" texnologiyasi oʻrganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni oʻquvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini taʼminlashga xizmat qiluvchi texnologiya hisoblanadi.

Dastlab ushbu texnologiyalarni qoʻllab koʻrganimizda bir necha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Jumladan, oʻquvchilar oldilarida turgan vazifaning yechimini topa olmasligi yoki muammoli savol berilganda unga oʻz vaqtida javob topa olmasligi v.h. Shuning uchun oʻquv mashgʻulotlari jarayonida muammoli oʻqitish texnologiyalaridan imkoniyat darajasida koʻproq foydalanish tavsiya etiladi. Muammoli oʻqitishning asosida amerikalik psixolog, pedagog Dj. Dyui gʻoyalari yotadi. Dyuning fikricha

oʻqitish samaradorligi shartlari oʻquv materiallarini muammolashtirish bola faolligi bilan bogʻliq boʻlishi kerak.

Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi:

Oʻqituvchi oʻquvchilarni guruhga ajratib, ularni mos oʻrinlarga joylashtirgach, mashgʻulotni oʻtkazish tartib oʻqoidani va talablarni tushuntiradi. Oʻqituvchi guruhlarga tayyorlab kelgan topshiriqlarni beradi va vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakillari oʻqib eshittiradi. Oʻqituvchi guruhlar tomonidan yozilgan muammoli qogʻozlarni almashtirib tarqatadi. Har bir guruh aʼzosi oʻzini qiziqtirgan muammoni tanlab oladi. Oʻqituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh aʼzosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoning yechim yoʻllari

Texnologiya afzalliklari. Oʻquvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash koʻnikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni, mantiqiy fikrlashni oʻrganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni oʻrganadi.

Kamchiliklari. Vaqt koʻp sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari toʻliq inobatga olinmasligi mumkin. Oʻzaro bir toʻxtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi.

“Orol dardi va millat dardi” matni oʻqib eshittiriladi.

Tarixiy manbalarda Orol dengizi bundan 35 ming yil avval paydo boʻlganligi haqida maʼlumotlar bor. Orol jahondagi eng katta suv havzalaridan biri boʻlgan. U Kaspiy dengizi, Shimoliy Amerikadagi Yuqori koʻl va Afrikadagi Viktoriya koʻlidan keyingi toʻrtinchi oʻrinda turgan. Bugun esa ana shu ulkan suv havzasi deyarli koʻlmakka aylanib borayotir.

Oʻqituvchi savol beradi: **Orol fojiasining sabablar nimada?**

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoning yechim yoʻllari
Orol fojiasining sabablar nimada?	Tabiatdan notoʻgʻri foydalanish	Saksovolzorlar tashkil qilish kerak

Bundan maqsad oʻquvchi matn bilan chuqurroq tanishadi, tabiatga boʻlgan muhabbati oshadi, tabiatni asrashni oʻrganadi.

Xasis va uning oltini

Xasis bir odam oʻzidagi bor-budini sotib, quyma oltin xarid qildi. Eski hovli yoʻlagidan yurib **bogʻga** kirdi, bir qoziq yonida toʻxtadi. Oʻsha yerdan choh qazib, oltinni koʻmib qoʻydi. Har kuni yoʻlakka borar va xazinasining butun turga nidan xabar olardi. Xasis odamning ishchilaridan biri uning bu yoqqa serqatnov boʻlib qolganini sezib qoldi va sababini bilmoqqa qaror qildi.

Tez orada ishchi koʻmilgan xazinaning sirini bilib oldi. Yerni kovlab, oltinni oʻgʻirlab ketdi. Ertasi kuni xasis qozigʻi yoniga kelib qarasa, oltin yashirilgan chuqur boʻm-boʻsh. U baqirib soch larini yuldi, odamlarni qargʻay boshladi. Xasisning ahvolini koʻrgan qoʻshnisi: **ʻIlltimos, bunchalik qaygʻurma. Borgin-da, tosh olib oʻsha chuqurga tashla. Oltinning har doimgidek oʻsha yerda yotganini tasavvur qil: oltining chuqurda bormi-yoʻqmi, undan senga hech bir naf yoʻq edi-kuʻ, ʻ dedi. (Ezop masallaridan)**

Qoʻyilgan muammo:Xasisning ishi toʻgʻrimi?

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoning yechim yoʻllari
Xasisning ishi toʻgʻrimi?	Xasis odamning ishchilaridan biri uning bu yoqqa serqatnov boʻlib qolganini sezib qoldi va sababini bilmoqqa qaror qildi	Qoʻldan ketgan narsaga achinmaslik. Nafi tegmagan oltinning toshdan farqi yoʻq

Matnni diqqat bilan oʻqing.Matnga qoʻyilgan notoʻgʻri fikrni toping.

1.Xasis oltinni bogʻga koʻmadi.

2.Xasis oltinni qoziq yonida yashiradi.

3.Oltinni qoʻshnisi oʻgʻirlaydi.

4.Donishmand maslahat beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. 1.5-sinf .Ona tili,Gʻ.Gʻulom nashriyoti,T:-2020.
- 2.Umumiy didaktika.Durdona nashriyoti,Buxoro-2012.
- 3.Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini baholash.Sharq nashriyoti.T:-2019.
- 4.Maʼrifat.2020-yil,22-iyul
5. 1.Oʻzbek tilining imlo lugʻati.A.Hojiyev, T., 1995